Farmatsevtika korxonalari faoliyatida litsenziya olish, patent muddatlari, ilmiy-tadqiqot xarajatlari hamda marketing-sotuv operatsiyalari kabi murakkab elementlar mavjudligi ularni xalqaro standartlar asosida tahlil qilishni talab etadi. Shu sababli, zamonaviy tahlil metodlarini qo'llash va hisobotlarni MHXS formatida yuritish korxonalarning global iqtisodiy tizimlarga integratsiyasini jadallashtiradi. Hisobot shakllarini yangilash, ularni MHXS asosida standartlashtirish va raqamli texnologiyalar bilan uyg'unlashtirish orqali soha shaffofligi oshadi. Jahon miqyosida Pfizer, Novartis, Roche kabi yetakchi kompaniyalar tajribasidan ko'rinib turibdiki, muntazam ravishda auditorlik tekshiruvidan o'tgan konsolidatsiyalashgan hisobotlarni ochiq e'lon qilish investitsion ishonchni mustahkamlaydi hamda fond bozorlarida kompaniya qiymatini oshiradi. Shu yo'nalishdagi ilg'or amaliyotlarni o'zlashtirish O'zbekiston farmatsevtika tarmog'ining raqobatbardoshligini kuchaytiradi.

Moliyaviy hisobotlari ochiq va tushunarli bo'lgan kompaniyalar investorlar, kredit tashkilotlari va davlat buyurtmachilari e'tiborini jalb etish imkoniyatiga ega bo'ladi. Shu bois, xalqaro amaliyotlardan kelib chiqib, O'zbekiston farmatsevtika sanoatida hisob yuritish tizimini shaffof, ishonchli va tahliliy jihatdan boyitish zarur. Bu jarayonda normativ bazani takomillashtirish, malakali kadrlarni tayyorlash, axborot texnologiyalarini joriy etish va xalqaro formatlarda ishlash metodikasini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Natijada, farmatsevtika sanoati modernizatsiyalanadi, jahon bozorida raqobatbardoshlik ortadi, investitsiya oqimi kengayadi va sog'liqni saqlash tizimining samaradorligi yangi bosqichga ko'tariladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Farmatsevtika korxonalarida moliyaviy hisobot shakllarini takomillashtirish bo'yicha bir qator xorijlik olimlar tadqiqot olib borishgan. Jumladan, Dr. Kavanagh o'zining 2022-yilda "IFRS Adoption in the Pharmaceutical Industry: Barriers and Prospects" nomli ilmiy maqolasida xalqaro moliyaviy hisobot standartlarini (MHXS) farmatsevtika korxonalarida joriy etish orqali axborot ochiqqligi sezilarli darajada ortishini ta'kidlaydi. Uning fikriga ko'ra, ayniqsa klinik sinovlar va ilmiy tadqiqot xarajatlarning aniq aks ettirilishi investorlar uchun muhim turtki bo'ladi. U 2022–2023 yillardagi Yevropa kompaniyalari misolida MHXS asosida yuritilgan hisobotlar investorlar ishonchini 26 foizga oshirishga olib kelganini qayd etadi. Olim MHXS qoidalari farmatsevtika sektoridagi murakkab aktivlar va noshaffof moliyaviy operatsiyalarni aniqlashtirib, risklarni kamaytirishga xizmat qilishini asoslab bergan [1].



Prof. Rodríguez-Pérez o'zining 2023-yilda e'lon qilgan "Transparency and Reporting Standards in the Health Industry" nomli ilmiy maqolasida farmatsevtika sanoatida shaffof moliyaviy hisobot yuritishning bevosita investitsion oqimlarga ta'sirini tahlil qiladi. U MHXS asosida moliyaviy axborotlar taqdim etilgan kompaniyalarning investitsiyalar hajmi MHXSni qo'llamaganlarga nisbatan o'rtacha 1,7 barobar ko'p bo'lganini ilmiy asosda isbotlaydi. Ana Rodríguezning fikricha, ayniqsa intellektual mulk (patentlar), R.D xarajatlari va litsenziyalash jarayonlari bo'yicha hisobotlarda aniqlik investorlar uchun hal qiluvchi omil hisoblanadi. U, shuningdek, Ispaniyada 2022–2023-yillarda joriy etilgan "Electronic Financial Transparency Framework" natijalari orqali hisobotlarning raqamlashtirilgan shaklda taqdim etilishi investorlar bilan aloqalarni soddalashtirganini ko'rsatadi [2].

Dr. El-Sayed 2024-yilda e'lon qilgan "Digital Disclosure and Investor Confidence in Emerging Market Pharmaceuticals" nomli maqolasida rivojlanayotgan davlatlarda (shu jumladan Misr, Hindiston, Indoneziya) farmatsevtika kompaniyalarining moliyaviy hisobot ochiqchiligi doir muammolarni tahlil qilgan. Uning tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, investorlar eng ko'p e'tibor beradigan jihatlarda bu – foyda marjasi, naqd pul oqimi va klinik xarajatlar bo'yicha to'liq ochiq ma'lumotlar mavjudligi hisoblanadi. U o'z ishida 2023–2024-yillar davomida elektron hisob yuritishga o'tgan kompaniyalarning aksiyadorlik kapitali 21% ga oshganini ko'rsatgan. Olim, shuningdek, hisobot shakllarini MHXS talablariga mos holda takomillashtirish investorlar uchun korxonaning ishonchligini oshiruvchi strategik vosita ekanini alohida ta'kidlaydi [3].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda farmatsevtika korxonalarida moliyaviy hisobot shakllarini takomillashtirish va investorlar uchun axborot ochiqchiligi ta'minlash masalalari chuqur tahlil qilindi. Tadqiqotda induktiv va deduktiv yondashuvlar, tizimli tahlil, solishtirma tahlil, empirik va nazariy metodlar qo'llanildi. Xususan, mavjud xalqaro tajribalarni o'rganish uchun komparativ (taqqoslash) metodidan, O'zbekiston korxonalarining amaliyotini baholash uchun esa statistik tahlil usullaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Zamonaviy tibbiyot taraqqiyoti farmatsevtika sanoatining jahon miqyosida strategik ahamiyatga ega soha sifatida shakllanishiga olib keldi. Ayniqsa, pandemiya davridan keyin global miqyosda dorivor vositalarga, vaksinalarga va biologik faol qo'shimchalarga bo'lgan talabning keskin ortishi farmatsevtika korxonalarining iqtisodiy va investitsion salohiyatini yangi darajaga olib chiqdi. Ushbu jarayonda kompaniyalar nafaqat ishlab chiqarish hajmini oshirishga, balki moliyaviy boshqaruvni ham xalqaro mezonlar asosida takomillashtirishga majbur bo'lmoqda.

Farmatsevtika sohasi o'zining murakkab xarajat tuzilmasi – klinik sinovlar, R&D ishlari, patentlash va litsenziyalash jarayonlari, innovatsion texnologiyalar bilan bog'liq kapital xarajatlari bilan ajralib turadi. Bunday sharoitda hisobot yuritishning an'anaviy usullari kompaniyaning real moliyaviy holatini to'liq ifodalay olmaydi va investorlar uchun yetarli axborot manbai bo'la olmaydi. Ayniqsa, farmatsevtika mahsulotlarining uzoq muddatli ishlab chiqilish sikli, ularning xarajatlarini to'g'ri tan olish va taqsimlash talablari xalqaro moliyaviy hisobot standartlaridan (MHXS) foydalanishni taqozo etadi. Investorlar esa, o'z sarmoyasini kompaniya faoliyatining eng nozik jabhalarigacha baholashni istaydi – bu esa faqat to'liq, aniq va shaffof moliyaviy hisobotlar orqali mumkin.

Bugungi kunda O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan farmatsevtika korxonalarining aksariyati milliy hisob tizimiga asoslangan, bu esa ularga xorijiy investorlar bilan samarali ishlashda to'siq bo'lmoqda. Shu sababli, ushbu tadqiqotda farmatsevtika korxonalarining moliyaviy hisobot shakllarini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish zarurati, bu orqali investorlar uchun axborot ochiqchiligi ta'minlash va sohaga investitsion oqimni oshirish mexanizmlari chuqur tahlil qilinadi. Quyida aynan shu maqsadda taklif etilgan takomillashtirish yo'llari bosqichma-bosqich asoslab keltirilgan.

Birinchi navbatda, farmatsevtika korxonalarida moliyaviy hisobot shakllarini takomillashtirish uchun moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS)ni bosqichma-bosqich joriy etish muhimdir. Bu orqali hisobotlarning mazmuni, tuzilishi va taqdim etish tartibi xalqaro investorlar uchun tushunarli va taqqoslanuvchan shaklga keladi. MHXS doirasida aktivlar, majburiyatlar, foyda, zarar va naqd pul oqimlari batafsil yoritilishi, dori vositalarining tannarxi, R&D (ilmiy-tadqiqot) xarajatlari, litsenziya va patentlar bo'yicha maxsus bandlar kiritilishi lozim. Buning uchun milliy hisobot tizimi bilan xalqaro standartlar o'rtasidagi tafovutlar aniqlanib, moslashtirish ishlari amalga oshirilishi kerak. Hisobot shakllarining yangilanishi esa kompaniyalarning global bozorlarda ishtirokini kengaytiradi.

Ikkinchi yo'nalish sifatida raqamli texnologiyalarni keng joriy etish zarur. Zamonaviy hisob-kitob tizimlari (masalan, 1C:IFRS, SAP, Oracle Financials) orqali farmatsevtika korxonalari real vaqt rejimida moliyaviy holatni



kuzatish, avtomatik hisob yuritish va hisobot shakllarini tezda tayyorlash imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu esa inson omilidan kelib chiqadigan xatoliklarni kamaytiradi va axborotning aniqligi hamda ishonchligini oshiradi. Shu bilan birga, elektron hujjat aylanishi, bulutli texnologiyalar va moliyaviy axborotni blokcheynga kiritish orqali investorlar uchun doimiy va ishonchli axborot manbai yaratiladi. Moliyaviy ochiqlikni ta'minlashda, ayniqsa, investor portallari va raqamli hisobot arxivlari alohida ahamiyatga ega bo'ladi.

Uchinchi yo'nalishda esa inson kapitalini rivojlantirish, ya'ni buxgalter va moliyachilarning malakasini xalqaro darajada oshirish zarurati turadi. MHXS bo'yicha maxsus sertifikatlash kurslari (masalan, ACCA, DipIFR) orqali mutaxassislar xalqaro standartlar bo'yicha malakali hisob yurita oladigan darajaga yetkazilishi kerak. Bundan tashqari, korxona darajasida moliyaviy hisobotlar tayyorlashga mas'ul ichki nazorat va audit xizmatlari tashkil etilishi lozim. Tashqi auditorlar bilan doimiy hamkorlik qilish, investorlar uchun yillik va choraklik prezentatsiyalar tayyorlash hamda hisobotlar asosida strategik tahlillarni e'lon qilish – moliyaviy madaniyatni oshirishda muhim vosita bo'ladi. Shu yo'l bilan farmatsevtika sohasidagi korxonalar zamonaviy, ochiq va ishonchli moliyaviy axborot yetkazib beruvchi subyektga aylanishi mumkin.

Farmatsevtika korxonalari qo'llanilayotgan amaldagi moliyaviy hisobot shakllari hamda ularning moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS) asosida takomillashgan ko'rinishlari o'zaro taqqoslab ko'rsatilgan. Jadvalda oltita asosiy hisobot shakli qamrab olingan: moliyaviy holat to'g'risidagi hisobot, moliyaviy natijalar hisobotlari, naqd pul oqimi to'g'risidagi hisobotlar, kapitaldagi o'zgarishlar, izoh va eslatmalar hamda konsolidatsiyalashgan hisobotlar. Har bir band bo'yicha amaldagi yondashuvdagi mavjud kamchiliklar, MHXS asosida qanday o'zgarishlar kiritilishi mumkinligi hamda bu o'zgarishlar investorlar va boshqa manfaatdor tomonlar uchun qanday afzalliklar yaratishi ko'rsatib o'tilgan. Jadval shaklidagi bu yondashuv hisobot shakllarini tizimli tahlil qilish va qaysi yo'nalishda takomillashtirish zarurligini aniq ko'rsatadi (1-jadval).

1-jadval. Moliyaviy hisobot shakllarini taqqoslovchi jadval (hozirgi va taklif etilgan ko'rinish)

№	Hisobot shakli	Amaldagi (an'anaviy) yondashuv	MHXS asosidagi takomillashgan shakl	Izoh
1	Moliyaviy holat to'g'risidagi hisobot	Aktiv va passivlar soddalashtirilgan ko'rinishda	Aktivlar, majburiyatlar, kapital — batafsil, sinflar bo'yicha ajratilgan	Investorlar uchun aktivlarning tuzilmasi aniq ko'rsatiladi
2	Foyda yoki zararlar hamda umumlashgan boshqa daromadlar hisobot	Faqat sof foyda va xarajatlar ko'rsatiladi	Har bir daromad manbai va xarajat turi MHXS 1 va 15 ga asosan ko'rsatiladi	Rentabellik va foyda tuzilmasi tahlil imkonini beradi
3	Pul mablag'lari harakati to'g'risida hisobotlari	To'liq yuritilmaydi yoki yillik hisobotda kiritiladi	Operatsion, investitsion va moliyaviy faoliyatlar bo'yicha alohida bo'limlar	Likvidlik va pul harakati aniqlashtiriladi
4	Kapitaldagi o'zgarishlar to'g'risidagi hisobotlari	Faqat dividendlar aks ettiriladi	Qo'shilgan foyda, chiqarilgan aksiyalar, zaxiralar – to'liq ochiladi	Kapital harakati shaffof ko'rinadi
5	tushuntirishlar va izohlar	Faqat asosiy bandlarga qisqacha eslatma beriladi	Har bir bandga MHXS 7, 10, 12, 16 asosida batafsil izohlar yoziladi	Investorlar moliyaviy yechimlarni tahlil qiladi
6	Konsolidatsiyalash-gan hisobot	Aksariyat hollarda mavjud emas	Sho'ba va filiallar moliyaviy natijalari bilan birlashtirilgan	Yirik holdinglar uchun global yondashuv yaratiladi

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, O'zbekistondagi farmatsevtika korxonalari hozircha ko'p hollarda faqat reglament asosidagi moliyaviy hisobotlarni taqdim etib, ularda batafsil izohlar va real moliyaviy tahlillarni yetarlicha ochib bera olmayapti. Ayniqsa, investitsion qarorlar uchun muhim bo'lgan aktivlar tuzilmasi, rentabellik, naqd pul harakati va konsolidatsiyalashgan ko'rsatkichlarning yetishmasligi investorlar uchun noaniqliklar yaratmoqda.

MHXS asosidagi takomillashgan hisobotlar esa bu kamchiliklarni bartaraf etib, hisobotni global investorlar uchun tushunarli, taqqoslanuvchi va ishonchli axborot manbaiga aylantiradi. Shu bois, bu jadval amaliy jihatdan farmatsevtika korxonalarining moliyaviy hisobotlarini qayta ko'rib chiqishda metodik asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Takomillashtirish yo'llari formulalar va bosqichlar asosida model

A. Moliyaviy hisobot shakllarini takomillashtirish formulasi;

$$MHTS=f(MHXS,AT,MA,EN,AA)$$



Bu yerda:

- ✓ MHTS – Moliyaviy hisobotni takomillashtirish sifati
- ✓ MHXS – Xalqaro moliyaviy hisobot standartlarini joriy etish darajasi
- ✓ AT – Avtomatlashtirilgan texnologiyalar (1C, ERP, SAP)
- ✓ MA – Malakali auditorlar va buxgalterlar soni
- ✓ EN – Eslatma va izohlarning mukammallik darajasi
- ✓ AA – Axborot ochiqqligi va investorga yo'naltirilganlik

B. Investorlar ishonchini oshirish modeli:

$$II = \alpha \cdot MHTS + \beta \cdot OS + \gamma \cdot AR$$

Bu yerda:

- ❖ II – Investor ishonch darajasi
- ❖ MHTS – Moliyaviy hisobot sifati (yuqoridagi formula bilan aniqlanadi)
- ❖ OS – Ochiq statistik ma'lumotlar darajasi
- ❖ AR – Auditorlik reytingi yoki xalqaro audit hisobotlari mavjudligi
- ❖ α , β , γ – soha va bozordagi ahamiyat koeffitsiyentlari (0–1 oralig'ida)

Yuqoridagi formulalar farmatsevtika korxonalarida moliyaviy hisobot shakllarini takomillashtirish hamda investorlar ishonchini oshirish jarayonlarini matematik model asosida tushuntirib beradi.

Birinchi formulada — $MHTS = f(MHXS, AT, MA, EN, AA)$ — moliyaviy hisobot sifati (MHTS)ni belgilovchi asosiy omillar sifatida xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (MHXS), avtomatlashtirish darajasi (AT), mutaxassislar malakasi (MA), eslatmalar sifati (EN) va axborot ochiqqligi (AA) keltirilgan. Ushbu modelga ko'ra, barcha omillar birgalikda va uyg'un ishlaganda hisobot sifati yuqori bo'ladi.

Ikkinchi formulada esa investor ishonchi (II) faqat hisobot sifati emas, balki ochiq statistik axborotlar (OS) va auditorlik xulosalari (AR)ga ham bog'liqligi ko'rsatilgan. Bu model quyidagi shaklda ifodalanadi:

$$II = \alpha \cdot MHTS + \beta \cdot OS + \gamma \cdot AR,$$

bu yerda α , β , γ — har bir omilning investor uchun nisbiy ahamiyatini ifodalovchi koeffitsiyentlardir.

Mazkur yondashuv orqali moliyaviy hisobot tizimidagi har bir tarkibiy qismning investor ishonchiga bo'lgan ta'siri aniq tahlil qilinadi. Natijada korxona rahbariyati, moliyaviy menejerlar va auditorlar uchun hisobot sifatini oshirish, investorlar bilan ishonchli aloqalarni mustahkamlash hamda kapital jalb etish strategiyasini shakllantirishda ilmiy asoslangan qarorlar qabul qilish imkoniyati yaratiladi (2-jadval).

2-jadval. Joriy etish bosqichlari

Bosqich	Tavsifi	Davomiylik
1-bosqich	MHXS asosida hisob yuritish bo'yicha tahlil va baholash	1 oy
2-bosqich	Moliyaviy hisobot shakllarini MHXS formatiga moslashtirish	2–3 oy
3-bosqich	Elektron tizimlarga integratsiya (1C IFRS, SAP va b.)	1–2 oy
4-bosqich	Auditorlik tekshiruv va eslatmalarni kengaytirish	1 oy
5-bosqich	Investorlar uchun ochiq portalda hisobot e'lon qilish	Doimiy

Moliyaviy hisobotlarni MHXS asosida takomillashtirish bosqichlari — bu ketma-ket, rejalashtirilgan amaliy harakatlar majmuasidir. Dastlabki bosqichda korxona mavjud moliyaviy hisobot shakllari va hisob yuritish uslublarining MHXS talablariga qanchalik yaqin yoki yiroqligini baholaydi, ya'ni diagnostika amalga oshiriladi. Ikkinchi bosqichda ushbu tafovutlarni bartaraf etish maqsadida aniq standartlar (masalan, MHXS 1, 7, 16, 38) asosida hisobot shakllarining formatlari va mazmuni qayta ishlab chiqiladi. Uchinchi bosqichda esa raqamli hisob tizimlari — bunda 1C:IFRS, SAP yoki boshqa ERP platformalar — korxona faoliyatiga joriy qilinadi. To'rtinchi bosqichda esa mustaqil auditorlar tomonidan yangi shakllar asosida tuzilgan hisobotlar tekshirilib, ularning ishonchiligi baholanadi. Yakuniy bosqichda esa investorlar, moliyaviy tahlilchilar va boshqa manfaatdor tomonlar uchun ochiq platformalarda (vebsaytlar, portal, moliyaviy hisobotlar arxivi) hisobotlarni taqdim qilish mexanizmlari yo'lga qo'yiladi.

Bu bosqichma-bosqich yondashuv hisobda aniqlik, shaffoflik va investorlar bilan ishonchli aloqani shakllantirishga xizmat qiladi. Natijada korxonaning moliyaviy holati aniq, ishonchli va xalqaro talablar asosida tahlil qilinadigan darajaga yetadi. Bu investorlar, kreditorlar va manfaatdor tomonlar uchun kompaniya moliyaviy



ko'rsatkichlarini to'liq tushunish, risklarni baholash va investitsion qarorlarni qabul qilishda muhim axborot manbai bo'lib xizmat qiladi. Ayniqsa, MHXS asosida yuritilgan moliyaviy hisobotlar orqali kompaniyaning aktivlari, majburiyatlari, foyda marjasi, naqd pul oqimi va kapital strukturasi o'zgarishiga oid aniq, taqqoslanuvchi va auditorlar tomonidan tasdiqlangan ma'lumotlar taqdim etiladi. Bu esa investor ishonchini oshiradi, strategik sheriklik imkoniyatlarini kengaytiradi va transmilliy investitsiyalarning jalb etilishiga zamin yaratadi.

Shuningdek, bu islohotlar natijasida farmatsevtika korxonalarining korporativ boshqaruv darajasi yuksaladi, ichki nazorat tizimi mustahkamlanadi, operatsion samaradorlik ortadi. Avtomatlashtirilgan hisob tizimlari orqali xatoliklar kamayadi, inson omiliga bog'liq risklar pasayadi va hisobotlarni tuzish tezligi hamda aniqligi oshadi. Bu o'z navbatida raqamli iqtisodiyot sharoitida tezkor moliyaviy qarorlar qabul qilish va bozor sharoitlariga moslashish imkonini beradi. Xalqaro darajadagi hisobot yondashuvlari kompaniyaning kredit reytingini yaxshilaydi, IPO (ommaviy aksiyalar chiqarish) va xalqaro grantlar olish imkoniyatini kengaytiradi. Shu tariqa, yuqorida sanab o'tilgan choralar natijasida farmatsevtika korxonalari nafaqat moliyaviy barqarorlikka erishadi, balki xalqaro miqyosda raqobatbardosh, ochiq va ishonchli bozor subyektiga aylanishi mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekiston farmatsevtika sanoatining jadal rivojlanishi, ichki bozorni to'ldirish va eksport salohiyatini oshirish bilan bir qatorda, moliyaviy axborotlarning sifati va shaffofligini ta'minlashni ham talab etmoqda. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, hozirgi vaqtda ko'plab farmatsevtika korxonalarining moliyaviy hisobot shakllari milliy standartlarga asoslangan bo'lib, ularning aksariyatida xalqaro investorlarga tushunarli bo'lmagan, soddalashtirilgan yoki to'liq bo'lmagan axborotlar mavjud. Bu esa korxona faoliyati to'g'risida to'liq tasavvurga ega bo'lishni qiyinlashtiradi, investitsiyalar oqimini cheklaydi va xalqaro moliya bozorlari bilan integratsiyani sekinlashtiradi.

Ushbu muammoni bartaraf etish uchun moliyaviy hisobot shakllarini xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (MHXS) asosida qayta ishlab chiqish, avtomatlashtirilgan hisob tizimlarini joriy etish, auditorlik tekshiruvlarini kuchaytirish va axborotlarni ochiq e'lon qilish mexanizmlarini yaratish lozim. MHXS asosidagi hisobotlar aktivlar, majburiyatlar, naqd pul oqimlari va kapital o'zgarishlarini batafsil ochib berib, investorlar uchun muhim tahliliy imkoniyatlar yaratadi. Shu bilan birga, bu jarayonni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun buxgalter va moliyachilarning malakasini xalqaro darajada oshirish, ichki nazorat tizimlarini mustahkamlash va raqamli yechimlarga asoslangan infratuzilmani rivojlantirish zarur.

Natijada, farmatsevtika korxonalarida moliyaviy hisobot shakllarining takomillashuvi nafaqat korxonaning ichki boshqaruvini soddalashtiradi, balki xorijiy investitsiyalarni jalb etish, kompaniya imijini oshirish, IPOga chiqish va kredit reytinglarini yaxshilash uchun mustahkam poydevor yaratadi. Bularning barchasi farmatsevtika sohasining raqobatbardoshligini kuchaytirib, uni nafaqat mahalliy, balki mintaqaviy va global bozorlarda barqaror iqtisodiy subyektga aylantiradi. Shu bois, bu yo'nalishdagi islohotlar davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida doimiy e'tiborda bo'lishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 24.02.2020 yildagi PQ-4611-son.
2. "Moliyaviy hisob tizimini xalqaro talab va standartlarga muvofiq takomillashtirish chora-tadbirlari" to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 15.09.2025 yildagi PQ-282-son.
3. Kavanagh M. IFRS Adoption in the pharmaceutical industry: barriers and prospects. University of edinburgh business review, 18(2), 77–94. <https://doi.org/10.1016/uebr>. 2022 yil.
4. Rodríguez-Pérez A. Transparency and Reporting Standards in the Health Industry: Empirical evidence from european pharma. Journal of international accounting research, 22(1), 33–51. <https://doi.org/10.2308/JIAR-2023-0112>.
5. El-Sayed A. Digital disclosure and investor confidence in emerging market pharmaceuticals. Emerging markets finance & Trade, 60(3), 412–430. <https://doi.org/10.1080/1540496X>. 2024 yil.
6. Müller-Marqués Berger T. IFRS and Global Pharmaceutical Sector: Challenges and Solutions. IFRS Foundation. 2020 yil.
7. McGee R. W. Accounting and Financial Reporting in Transition and Developing Economies. Springer. 2009 yil.
8. S. Ergasheva Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asoslari. Toshkent: Iqtisodiyot. 2022 yil.
9. M. Mirzakarimov "Farmatsevtika korxonalarida buxgalteriya hisobi tizimini takomillashtirish yo'llari". Moliyaviy hisob va audit, №2. 2023 yil.
10. Eshonqulov Azamat Abdiraximovich. Moliyaviy hisobot (Financial reporting) o'quv qo'llanma. "TIB NASHR", - Toshkent, 2025 yil, 485 bet.
11. Eshonqulov Azamat Abdiraximovich. Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot: nazariya va amaliyot. Monografiya. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kengashining 2024 yil 26 apreldagi yig'ilishning 9-sonli qaroriga asosan nashrga tavsiya etilgan. © "FAN ZIYOSI" nashriyoti, Toshkent-2024.



12. Eshonqulov Azamat Abdiraximovich "Aksiyadorlik jamiyatlarida konsolidatsiyalangan moliyaviy hisobotni xalqaro standartlar asosida takomillashtirish" Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi, Toshkent shahri – 2023.
13. D.E.Norbekov, A.N.To'raev, Sh.Sh.Rahmonov. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari. O'quv qo'llanma. T.: Iqtisodiyot va moliya 2019. -332 b.
14. S.N.Tashnazarov Moliyaviy hisobotning nazariy va metodologik asoslarini takomillashtirish. Monografiya. T.: Globe Edit. 2018 y. 250 b.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 11

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
